

GEOGRAFIYA DARSLARIDA TOPONOMIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH

Mo'minov Doniyor G'ulomovich

*Qo'qon davlat universiteti Geografiya
va iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, g,f,n*

Qo'ziboyeva Ozodxon Mahmudovna

*Qo'qon davlat universiteti Geografiya
va iqtisodiyot kafedrasi professori, g,f,d*

ANNOTATSIYA

Qo'qon shahri toponimikasi statigrafiyasi va guruhlashtirishga doir masalalar, Qo'qon shahri hududi joy nomlari ijtimoiy-geografik yondashuvning zarurati, hududni ijtimoiy-geografik tadqiq etish usullari, Qo'qon shahri hududi "tabiat-aholi-xo'jalik" tizimidagi tabaqalanishi, joy nomlarida etnografik xususiyatlarga xoslik aks ettirilgan va shunga oid masalalar yoritilgan.

Tayanch ibora: arealli nomlar, antonim nomlar, dromotoponim, gidronim, indikator nomlar, Etnoekologik madaniyat, ijtimoiy-geografik yondashuv.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТОПОНОМИЧЕСКИХ ДАННЫХ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

АННОТАЦИЯ

Топонимика города Коканда вопросы, связанные со статиграфией и группировкой, топонимические названия города Коканда необходимость социально-географического подхода, метод-социально-географического исследования территории, стратификация территории города Коканд в системе природа-население характер, отражение в топонимических названиях специфик этнографических особенностей и связанные с этим вопросы.

Базовая фраза: ареальные названия, антонимические названия, дромотопоним, гидротопоним, показательные названия этноэкологическая культура, социально-географический подход.

USE OF TOPONOMIC INFORMATION IN GEOGRAPHY LESSONS

ANNOTATION

Issues related to statigraphy and grouping of toponymic of Kokand city, Kokand city area place names the need for a socio-geographical approach, socializing the territory-methods of geographical research, the territory of the city of blood "nature-

population-system” stratigrafication, place names reflect the specificity of ethnographic features, and so on related issues covered.

Base phrase: arealnames, antonym names, dromotoponym, hydonym, indicator names, ethnoecological culture, socio-geographical approach.

KIRISH.

Jahonda “Inson-tabiati” o’rtasida munosabatlar natijasida vujudga kelayotgan turli tabiiy va antropogen jarayonlarga doir tadqiqotlarga kata e’tibor berib kelinmoqda. Bunday o’zgarishlarga sug’oriladigan yerlarning texnogen buzulishini, cho’llar maydonini o’zgarishini, tuproq degregatsiyasini, tuproq va ekin yerlarining meliorativ holatini yomonlashishini, errozion jarayonlarni kuchayib borishini, tuproq va o’simlik degregatsiyasini, deflyatsiya kabi salbiy tabiiy geografik jarayonlar tezlashishi kuzatilmoqda. Unga ko’ra, BMT ning “2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo’yicha dasturi”¹da “Quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o’rmonlardan ratsional foydalanish va boshqarish, cho’llanishga qarshi kurashish, yerlarning degregatsiyasini to’xtatish va biologic xilma-xillik yo’qolishining oldini olish” kabi vazifalar belgilab berilgan¹. Mazkur vazifalar ayniqsa, tabiiy namlik yetishmaydigan, arid iqlimli hududlarda landshaftlarning tabiiy resurs salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish, joy nomlari bilan bog’liq ilmiy tadqiqotlar, qishloq xo’jaligini, jumladan, dehqonchilik turlarini rivojlantirish, turli xo’jalik tadbirlarini amalga oshirishda funksional-dinamik, strukturaviy-dinamik, paragenetik va paradinamik aloqadorlik tamoyillari asosida keng qamrovli tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlat tahlili. Aholi etnoekologik madaniyatining ijtimoiy-geografik jihatlarini tadqiq etish muammolarini o’rganishning nazariy-uslubiy asoslari xorijiy olimlardan J.X.Styuard, X.C.Konklin, MDH mamlakatlari olimlaridan L.S.Berg, P.N.Savitskiy, B.V.Andrianov, V.I.Kozlov, L.N.Gumilev, R.F.Its, S.M.Myagkov, A.G.Drujinin, Yu.A.Vedenin, K.B.Klokov, K.P.Ivanov, I.Yu.Gladkiy, V.N.Kalutskov, M.V.Ragulina va boshqalarning ishlarida keltirilgan.

Xalqimizning tabiatdan foydalanish an’alarini o’rganishning ijtimoiy-geografik jihatlarini A.Nizomov, G.Rahimova, Z.Do’simov, M.Mamatqulov, M.Mirakmalov asarlarida aks ettirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Etnoekologik tadqiqotlar olib borishda majmualiy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, sababi, bu tadqiqotlarni bir vaqtning o’zida tabiiy hamda ijtimoiy mohiyatga egadir. Tadqiqotda yechimini kutayotgan muammolarning katta qismi tabiiy-ekologik xarakterda bo’lsada, ularning yechimida ijtimoiy-tarixiy masalalarni hal etilishi katta o’rin tutadi.

¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha barqaror rivojlanish dasturi.
<https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/uz/home/post-2015.html>

Shuning uchun, tadqiqot ishida majmualar qarashlarni o'zida mujassamlagan tarixiy hamda, ekotizimli yondashuvlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Tahlil va natijalar. (Analysis and results). Geografiya, tarix, adabiyotshunoslik, biologiya, geologiya, etnografiya kabi ko'plab fanlarni o'rganishda toponimika muhim rol o'ynaydi. U fan sifatida birmuncha kechroq shakllangan, ya'ni nisbatan yosh bo'lsa ham, zamonamizda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek predmetlarning asosiy o'rganish metodlaridan biri o'laroq shakllanib bo'ldi. Chunki ularning har birida bilish nomlar orqali amalga oshiriladi. Shusiz geografik nomlarni bir-biridan farqlash qiyin va tabiiyki, har bir turkum (shahar, qishloq, tog', cho'l va h.k.z.) tushunchalarning aralash-quralash bo'lib ketishiga sababchi bo'ladi. Shu boisdan insoniyat shakllanibdiki, ularni ayrim-ayrim nomlar bilan ataydi. Natijada jamiyat tarixida millionlab nomlar paydo bo'ldi va ularning o'ziga xos mazmunlari shakllandi. Aynan o'sha ma'no-mazmun bir qancha fanlarni o'rganishda "kalit" so'zlar vazifasini o'taydi. Buni chuqur anglagan tadqiqotchilar joy nomlarini tarixiy, lingvistik, ya'ni etimologik jihatdan tahlil qilar ekan, o'sha toponim mazmunan joylashgan nuqtasining tabiiy-geografik sharoitiga naqadar mos tushish-tushmasligiga e'tibor qaratadilar. Chunki joy nomlari o'sha xududning ko'pchilik xususiyatlarini aniq ifodalab turadi. Masalan. Qo'qon shahridagi misgarlik, Degrezlik mahallalari bu yerda qadimdan temirchilik bilan mashhurligini angalatadi.

"Qo'qon" atmasining kelib chiqishi Abu Isxoq Ibrohim ibn Muhammad al-Istaxriy (850-934 yy.) "Kitab masolih al mamolik ("Mamlakatlar yo'llari haqida kitob") asarida shunday yozadi:

"-Xo'janddan Farg'onaning bosh kenti Axsikentga boruvchi kavonlar Kanddan So'xgacha bir manzil va Xo'qandgacha bir kata manzil, Xo'qanddan Axsikentgacha bir manzil yuradi..."¹

Muallfining nomi bizgacha yetib kelmagan 983-yilda yozilgan "Kitabi-hudud-ul olam minal mashriq ilal mag'rib" (Olam hududi, Mashriq va Mag'rib chegaralari) asarida quyidagilarni o'qish mumkin: "- Xo'qand va Roshidon va Zandramish shaharlarining aholisi zich joylashgan bo'lib, ekin ekiladigan maydonlari ko'pdir..."

Atamani o'rganish tarixida "Xo'qand" Xavokand- shamollar shahri degan ma'noni anglatishi aniqlangan.

Qo'qon shamoli bahor va kuzda Farg'ona vodiysida bosim past bo'lganda g'arbdan vodiya tomonga esib, tezligi sekundiga 15—25 m ga yetadi. Qo'qon toponimikasi aynan shu shamol bilan bog'liq.

Qo'qon shahri toponimikasida statigrafik qatlamning arab, fors, turkiy, eng yangi qatlam kabi topografik qatlamlarini uchratish mumkin.

Arab tilidagi toponim qatlami. Arab tili asosida shakllangan toponimlar respublikamiz hududida bir muncha zich joylashgan bo'lib, qalin qatlamni tashkil etadi. Arab tili somiy tillar guruhining janubiy-g'arbiy atarmog'iga mansub bo'lib, O'rta

Osiyo jumladan respublikamiz hududidaislom dini kirib kelgan VIII-IXasrlardan boshlab yoyila boshlangan. Ko'pincha tarkibida balki, mazor, rabot, aqba, xo'ja, sayyid, eshon qo'shimchalari bo'lgan toponimlar arabcha o'zakdan tashkil topgan atamalarga misol bo'la oladi. Arab-fors tilidagi toponim qatlamga Sarboz, Saodat, Bandi Eshon, Xo'ja Dodxoh, Aspi Jallob, Rabot, Sayyod, Dilkusho kabilar misoldir.

Fors tilidagi toponim qatlami. Forsiy o'zaklardan iborat bo'lgan toponimlar qatlami ham statigrafiyada bir muncha ahamiyatli bo'lib, respublikamiz bo'ylab ayniqsa, Zarafshon, Qashqadaryo, Farg'ona vodiysida tarqalgandir. Fors tili hid-yevropa tillari oilasidagi eroniy tilar guruhining janubiy-g'arbiy tamog'iga mansub.Majnunatol, Chahorbog', Navro'z, Chorbog', Nurafshon, Chorchinor mahallalari yaqqol misoldir.

Turkiy xalqlar toponim qatlami. Eng keng tarqalgan qadimgi qatlam. O'zbekiston hududida tarqalgan statigrafik qatlamning yirik qismi. Yozma manbalarga ko'ra, yurtimizda eng qadimgi mahalliy tillar: turkiy, fors, arab va eski o'zbek tillari rivoj topgan.² Shu boisdan eng qadimgi toponimlar ham asosan shu tillarga xos o'zaklarda aks etgan bo'lsa, ba'zan esa qadimgi hamda hozirgi o'zbek va tojik so'zlarining qo'shilishidan gibrid tarzda shakllangandir

Turkiy qatlamga esa To'qqiz buloq, Yorqo'rg'on, Oqibat, Jumhuriyat, Elaton kabilar.

Yangi toponim qatlam. Respublikamiz mustaqillikka erishgach toponimlar ham qadriyatlar tarzida qayta tiklana boshlandi. Davr talabini aks ettiradigan xaqлона oddiy, hammaga tushunarli bo'lgan nomlar bilan almashtirildi. Qadimgi tarixiy nomlar tiklandi.Yangi qatlamga esa Mustaqillik, Furqat, Amir Temur, Navoiy, Istiqlol, SobirAbdulla, Davronbek kabi mahallalarni ta'kidlab o'tish joiz.

Aholining kasb- hunarlari bilan bog'liq holda hosil bo'lgan toponimlar. Tarixiy davridayoq Respublikamiz turli burchaklarida yashagan aholining ayrim kasb-hunar bilan mashhur bo'lganligi ma'lum. Farg'onada, Marg'ilon, Namanganda atlas, adras to'qish, Quvada sopolsozlik, G'ozg'onda marmarga ishlov berish, Kasbida ko'zagarlik, Buxoroda mis idishlarga naqsh chekish kabi kasb-xunar bilan hunarmandlar dong chiqargan. O'sha ish turi bilan mashg'ul bo'lgan aholi vakillarining yashash joylari esa aynan shu kasb turi bilan atalishi xususiyatli holder. Ushbu atamalar o'lchami jihatdan ko'proq o'rta va mikrotoponimlar guruhiga mansubdir. Aholining kasb-xunariga bog'liq holda shakllangan toponimlar (Ko'rpabof, Taroqchilik, Gulchilik, Dalachilik, Degrezlik, Misgarlik, Yangi dehqon) .

Migratsion nomlar. Bu turdagi toponimlar bir hududdan ikkinchi hududga olib kelinadi. Bu holat ikki yo'l bilan hosil bo'lishi mumkin. 1. Aholining migratsiyasi natijasida, ko'chishga tutingan xalq yashagan joy nomi , 2. Ko'chgan aholi bilan birgalikda kelib, yangi joyni o'sha nom bilan atalishiga sabab bo'ladi.

Toponimlarning tasniflanishi guruhiga ko'ra esa antropotoponim, arealli nomlar, antonim nomlar, dromotoponim, gidronim, indikator nomlar, zootoponimlar, fitotoponimlar, mikrotoponimlar va me'moriyal nomlar guruhiga kiruvchi toponimlarni uchratamiz.

O'simliklarning nomi bilan bog'liq holda shakllangan toponimlar. Ko'pgina holatlar toponimlar o'sha hududda mavjud bo'lgan, ayrim xususiyatlari bilan (masalan, kam uchrashi balik zich tarqalganligi yoki areallar ichida gegemonlik qilishi bilan) ajralib turuvchi o'simlik turlarining nomi bilan ataladi. Masalan, Yangi Bodom, Jiydali, Bog'i Atirgul, Olmazor kabilar.

Tog' jinslari nomi bilan bog'liq holda shakllangan toponimlar-petronimlar. Ushbu turdagi toponim atamalar respublikamiz hududi bo'ylab keng tarqalgandir. Ular ko'proq mahalliy aholi tomonidan jonli so'zlashuvda faol ishtirok etiladigan so'zlar shaklida qatnshadi. Qo'qon sharidagi mahallalarning birining nomi ham bunga bog'liq. Misol uchun Oqtosh, Ohaktosh.

Shaxslarning ismi, shariflari, taxallus hamda laqablari bilan ataluvchi toponimlar-antropotoponimlar. Aholining nomdor vakillari-olimlar, xalq qahramonlari, barcha yetuk shaxslar ba'zan esa salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan ayrim taniqli kishilar nomi bilan ham ataladigan joy nomlari mavjud. Bu xususiyat aynan o'sha taniqli shaxsning hayoti, ijodiy faoliyati yoki esda qolarlik ish ko'rsatgan joyi bilan chambarchas holda yuz beradi. Navoiy, Mashrab, Bekbo'tabek, Nodirabegim, Sobir Mulla Ohund, Valixon to'ra, Abdulhay Rizayev, To'raxon Ibrohimova mahallalari, Muqimiy ko'chasi bunga yaqqol misoldir.

G'aroyib nomlar. Geografik nomlarning ayrim holatlarda ma'no-mazmuni qorong'u, ba'zan kulguli, ayrimlari esa qo'rqinchli bo'lgan holatlarda uchratamiz. Qo'qondagi Qaymoqli guzar, G'ozi yog'liq, Jin qishloq, Gadoyboy mahallalari shu tarkibga kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

1. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni barqarorlashtirish, yuzaga kelayotgan xududiy ijtimoiy-geografik muammolarni hal etishda mahalliy xalqlarning tabiatdan foydalanish borasidagi an'anaviy madaniyatini o'rganuvchi etnogeografik va etnoekologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj va talab shakllantirildi;

2. Ijtimoiy geografiya yo'nalishidagi etnoekologik tadqiqotlarning ob'yekti sifatida etnoekologik madaniyatning barcha yo'nalish va elementlari emas balki, geografiyaning 3 ta metodologik talabiga javob beradigan, ya'ni hududiy mazmunga ega, kartalashtirish imkoniyati mavjud va uni tadqiq etish geografik qobiq uchun yangi bilimlar beradigan yo'nalishlari tanlab olindi. Shunga ko'ra, etnoekologik madaniyatning moddiy yo'nalishidan yer-suv resurslaridan foydalanish va aholi maskanlari hududiy tashkil etish, ma'naviy yo'nalishlaridan esa geografik ob'yektlarga

nom berish, muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolarni tashkil etish madaniyati hamda etnoekologik ta'lim-tarbiyaning hududiy jihatlarini o'rganish ajratib olindi;

3. Mahalliy aholi tomonidan qo'llanilib, avloddan-avlodga o'tib, alohida qadriyat sifatida saqlangan, tabiiy (boquvchi) ona landshaft bilan uyg'unlikka asoslangan tabiatdan foydalanish madaniyatining keskin o'zgartirilishi barcha tarixiy davrlarda salbiy ijtimoiy-geografik oqibatlarni keltirib chiqarganligi aniqlandi. Ayniqsa, quruq iqlimli hududlarda mahalliy aholining yer-suvdan foydalanish madaniyatini yetarlicha e'tiborga olmaslik salbiy ekologik oqibatlarga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMT ning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturi. [//www.uz/undp/org/content/Uzbekistan.ru](http://www.uz/undp/org/content/Uzbekistan.ru)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <http://lex//uzdocs/3107036>
3. PF-5742-sonli "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz./docs4378526>
4. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатнома. 2020 йил 24 январь <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi>
5. A.Nizomov, G.Rahimova, N.Rasulova. Toponimika. "Sharq". 2013. 6. Fazliy."Majmuai shoiron" qo'lyozma.XIX asr 1-chorak.
6. Qo'qon xonlari arxivi.Toshkent. Markaziy Tarix Davlat Arxivi.
7. Do'simov Z.Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati."O'qituvchi" 1977.
8. Mamatqulov M.Toponimika. T.TDPU. 2001.
9. Mirakmalov M.T. Xalq-tabiiy geografik terminlari. O'z.MU. 2009
- 10.Кузибоева О.М, Хамедов А. Развитие географических основ для оптимизации геоэкологических ситуаций юго-западной Ферганы // Экономика и социум. №1, 2022.
- 11.Қўзибоева О.М. Фарғона ботиғи ландшафтларини замонавий усулларда тадқиқ этиш ҳамда улар асосида ландшафтлардаги ўзгаришларни баҳолаш // Фан ва жамият. 3-сон. Нукус, 2021.-Б. 32-34.
- 12.Қўзибоева О., Расулов Э. Фарғона ботиғини геоморфологик тузилишини ўрганиш // Фан ва жамият. 3-сон. Нукус, 2021. -Б. 34-35.
- 13.Қўзибоева О. Ер ости сувларини ландшафтлар ва уларнинг тадрижий ўзгаришларига таъсирининг таҳлили. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. №3/1/1-сон. Тошкент, 2021. -Б. 216.
- 14.Қўзибоева О., Хамедов А. Жанубий-ғарбий Фарғона ландшафтларини тадрижий ўзгариши билан иқлимий кўрсаткичларни ўртасидаги боғланишлар // Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. №3/1/1-сон. Тошкент, 2021

15. Qo'ziyoyeva O., Sobirova N. Farg'ona vodiysi landshaftlarining rivojlanish tendensiyasini o'rganilish tarixi // Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. Samarqand, 2021, 5-son. -B. 74
16. Қўзйбоекв О., Мелиев Б. Худуд ландшафтлари тадрижий ўзгаришлари билан иқлимий кўрсаткичларининг ўртасидаги боғланишлар таҳлили // Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. №3/2-сон. Тошкент, 2021. -Б. 184.
17. Muminov Daniyor Gulomovich. SOME CONSIDERATIONS ON THE ECOLOGICAL STATUS OF LAND RESOURCES. INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.718. 2022.
18. Mominov Daniyor Gulomovich. GEOECOLOGICAL BASIS OF SOUTH FERGANA NATURE PROTECTION AND RATIONAL USE OF NATURAL RESOURCES. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022.
19. Муминов Дониёр Гуломович. Ландшафтно-экологические аспекты использования земельных ресурсов. Abay nomidagi Qozoq Milliy pedagogika universitetida “Парадигмы естественно-научного образования и науки в целях устойчивого развития” mavzusida o'tkazilgan yoshlar forumi. Noyabr, 2022. 146-150.